
Arizalar qanoatlantirildi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq adliya organlariga jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ustivor vazifa etib belgilangan.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston sud boshqaruvchilari assotsiatsiyasi Jizzax viloyat bo‘limi manfaatida Zomin tuman adliya bo‘limi sudga kiritgan 78 ta, qiymati 185 million 578 ming 580 so‘mlik hamda Yangiobod tuman adliya bo‘limi sudga kiritgan 20 ta, qiymati 47 million 553 ming so‘mlik arizalar Zomin tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan Iqtisodiy protsessual kodeksining 2034 va 2035-moddalari talabi asosida soddalashtirilgan tartibda ko‘rib chiqildi.

Ma’lumki, Prezidentning 2019-yil 1-fevraldagi “Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandida 2019-yilning 1-mayidan boshlab qarzdor turgan joydagi tuman (shahar) soliq inspeksiyasining qaroriga asosan, har bir yakunlangan tugatishga doir ish bo‘yicha Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan sud boshqaruvchilariga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 7,03 baravari miqdorida haq to‘lanishi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni uzishda to‘langan qarz summasining 5 foizi miqdorida sud boshqaruvchilariga qo‘shimcha haq to‘lanishi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-sentabrdagi “Sud boshqaruvchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 765-sonli qarorining 2-bandiga ko‘ra, Moliya vazirligi bankrotlikning soddalashtirilgan tartibotlarini amalga oshirishda sud boshqaruvchilariga mukofotlar to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun 2019-yil Davlat byudjeti parametrlari doirasida mablag‘lar ajratish va 2020-yildan boshlab har yili zarur byudjet mablag‘lari ajratilishini nazarda tutishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagi qonun hujjatlariga asosan tuman adliya bo‘limlari tomonidan kiritilgan arizalarning barchasi to‘liq qanoatlantirildi va sud boshqaruvchilariga ish haqlari undirish belgilandi.

Shomurod BEGMATOV,
Zomin tumanlararo iqtisodiy sudining raisi



Ахборотни расмий ва ишончли манбадан олинг!

Ахборот кўплиги ва хилма-хиллиги замонида Адлия вазирлигининг @huquqiyaxborot канали тўғри, аниқ ва ишончли манбалардан бири ҳисобланади.

- ўзбек тилида (кирилл алифбосида) – https://t.me/huquqiyaxborot
- ўзбек тилида (лотин алифбосида) – https://t.me/huquqiyaxborot_lotin
- рус тилида – https://t.me/pravoinf
- инглиз тилида – https://t.me/leginf

Получайте информацию из официального и надежного источника!

В эпоху изобилия и разнообразия информации канал @huquqiyaxborot Министерства юстиции является одним из достоверных, точных и надежных источников.

- на узбекском языке (кириллица) – https://t.me/huquqiyaxborot
- на узбекском языке (латиница) – https://t.me/huquqiyaxborot_lotin
- на русском языке – https://t.me/pravoinf
- на английском языке – https://t.me/leginf